

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH DAVLAT  
QO'MITASI TIZIMIDA MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLARNI TASHKIL ETISH CHORA-  
TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

So'nggi yillarda tabiiy hududlarni saqlab qolish va ularni qayta tiklash, ekologik muhitni yaxshilash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash maqsadida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni kengaytirish va rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2018 — 2021-yillar davomida Ugom-Chotqol davlat biosfera rezervati, Xorazm va "Janubiy Ustyurt" milliy tabiat bog'lari hamda "Sudochye-Akpetki" davlat buyurtma qo'riqxonasi tashkil etilib, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning mamlakat hududidagi ulushi qariyb ikki baravarga ortdi.

Respublikada "Qizil kitob"ga kiritilgan o'simlik va hayvonot dunyosining noyob hamda yo'qolib borayotgan turlarini qamrab olgan, o'ziga xos, qimmatli tabiiy obyektlar va majmualar mavjud bo'lib, ularni saqlab qolish va qayta tiklash muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydonini kengaytirish, ekologik qimmatga ega bo'lgan tabiiy obyektlar va majmualarni, o'simlik va hayvonot dunyosining noyob va yo'qolib borayotgan turlarini saqlab qolish hamda ularni qayta tiklash maqsadida:

1. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (keyingi o'rinlarda — Davlat ekologiya qo'mitasi), Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi hamda Navoiy viloyati hokimligining:

muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil etish uchun Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasiga doimiy egalik huquqi asosida tegishli bo'lgan Uchquduq tumanidagi 694 205,5 gektar hamda Tomdi tumanidagi 40 000 gektar yer maydonlarini zaxiraga qaytarish;

davlat tabiatni muhofaza qilish muassasasi shaklida Uchquduq tumanida umumiy maydoni 1 200 000 gektar bo'lgan "Markaziy Qizilqum" milliy tabiat bog'ini va Tomdi tumanida umumiy maydoni 40 000 gektar bo'lgan "Oqtog'-Tomdi" davlat qo'riqxonasini tashkil etish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin.

2. Quyidagilar:

"Markaziy Qizilqum" milliy tabiat bog'i uchun ajratiladigan umumiy maydoni [1-ilovaga](#) muvofiq;

"Markaziy Qizilqum" milliy tabiat bog'ining qo'riqxonasi, rekreatsiya va xo'jalik maqsadida foydalanish zonalarini uchun ajratiladigan yer maydonlari [2-ilovaga](#) muvofiq;

"Oqtog'-Tomdi" davlat qo'riqxonasining qo'riqxonasi hududi uchun ajratiladigan yer maydonlari [3-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki:

"Markaziy Qizilqum" milliy tabiat bog'ining xo'jalik maqsadida foydalanish zonasidagi yerlar ushbu hududlarda joylashgan yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar ixtiyorida qoladi;

"Markaziy Qizilqum" milliy tabiat bog'i va "Oqtog'-Tomdi" davlat qo'riqxonasining muassasi Davlat ekologiya qo'mitasi hisoblanadi.

4. Quyidagilar "Markaziy Qizilqum" milliy tabiat bog'i va "Oqtog'-Tomdi" davlat qo'riqxonasi faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib belgilansin:

2022-yilda — Davlat ekologiya qo'mitasining Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish jamg'armasi mablag'lari hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar;